



GONZO-JURNALISTIKASINING O'ZIGA XOS XARAKTERLI USLUBI VA TILI

Nodira Suleymonova

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti*

Xalqaro jurnalistika yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida gonzo-jurnalistikasining uslubi va tili, o'ziga xos xarakteri, matn kompozitsiyasi, muallif fenomeni, uslubga xos ramzlar tadqiq qilindi. Uslub asoschisi Hanter Tompsonning "Kentukki derbisida yengiltak va axloqi buzular" maqolasining tili o'rganildi.

Kalit so'zlar: gonzo-jurnalistika, gonzo uslubi, yangi jurnalistika, "текстуальной перформативности", modernizm.

Gonzo uslubining hikoya qilish xarakteristikasi qoida tariqasida birinchi shaxsda, badiiy uslubda, o'quvchini hikoyaga chuqurroq singdirish uchun "ong oqimi" texnikasidan foydalangan holda olib boriladi. Barcha materiallarda asosiy narsa voqea emas, balki jurnalistning o'zi, uning ruhi "evolyutsiya"si turadi. Gonzo-jurnalistikasi voqealar, faktlar, hodisalarni yoritishda individual yondashuvni aniqlashga intiladi. Muallifning so'z boyligidan foydalanish, jargon, muallifning tajribasi va uning pozitsiyasiga e'tibor qaratish, ekstremal subyektivizm gonzo-jurnalistikasining o'ziga xos xarakterli uslubidir. Ikkinchi jahon urushidan keyin jurnalistikada "yangi jurnalistika" kabi o'ziga xos yo'nalish (1960-yillarda paydo bo'lgan) uning qoshida esa gonzo-jurnalistikasi (1970) kurtak ochdi. Mashhur jurnalist, yozuvchi Hanter Tompson gonzo-jurnalistika janrining asoschisi hisoblanadi.

Gonzo tadqiqotchisi, amerikalik jurnalist Uilyam Liri gonzo-jurnalistikasining eng muhim xususiyatlarini shunday ta'riflaydi: "Hodisa shunchaki fon, sodir bo'layotgan voqeaning ramkasi, bu muhim emas, lekin usiz gonzo mumkin emas. Gonzo senzurani qabul qilmaydi va shuning uchun uning matni ba'zan savodsizdir, chunki qayta o'qish senzurani anglatadi, shuning uchun iboralar parcha-parcha va ba'zan bir-biriga bog'liq emas, lekin ip har doim matn bo'ylab cho'ziladi, hatto uning cho'zilishi juda katta bo'lsa ham, deyarli uzilishi ham mumkin, uni uzib bo'lmaydi, aks holda, avval, bosh keyin esa tana o'ladi. Gonzo – bu hodisa emas, balki shaxs¹".

Gonzo-jurnalistikasida hikoyaning tuzilishi umuman shart emas, lekin muallifning individualligi, tanlangan materialga nisbatan aniq pozitsiyasi muhimdir.

¹ Гонзо-журналистика, взгляд изнутри / Стенфорд Уильям Лири [Электронный ресурс]. 2015.
<http://www.gonzo.org/roads/hstbib.html>





Bu tanlangan mavzu, jamiyatda muhokamalar cho‘qqisida bo‘lgani kabi, uning nutqi ham yaxshi, puxta tuzilishi yoki hech kimni qiziqitmasligi mumkinligi bilan ifodalanadi. H. Tompson aytganidek voqealar muxbirni emas, balki muxbir voqeani yaratadi. Ammo gonzo-jurnalistikaning vazifasi shundaki, muallif qaysi mavzuni tanlamasin, matnning o‘zi va muallifning pozitsiyasi o‘quvchini o‘ziga jalb qiladi.

Rossiyalik jurnalist va o‘qituvchi, M. V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti jurnalistika fakulteti dotsenti Y. V. Prutskov “Xorijiy jurnalistika tarixi 1945-2008” antologiyasida Ikkinchi jahon urushi davrdan keyin turli mamlakatlarda jurnalistika va jurnalistikaning rivojlanishini o‘rganadi. Yevgeniy Vladimirovich o‘z tadqiqotida gonzo-jurnalistika tug‘ilgan Amerikani chetlab o‘tmaydi. Shunday qilib, Y.V. Prutskov XX asrning ikkinchi yarmidagi taniqli yozuvchi Kurt Vonnegutga ishora qiladi, u gonzo-jurnalistikasini “Qoidalarning to‘liq yo‘qligi sababli kubizmning adabiy ekvivalenti” deb atagan².

Gonzo-jurnalistikasining tili reportaj janriga xos yozilsa-da, lekin badiiy publitsistikaga yaqin turadi. Publitsistning gonzochoa hikoya uslubi faktning badiiy o‘zgarishi bilan ajralib turadi. H.Tompsonning “gonzo” matnlarida matn shaklining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, matn shakli (“текстуальной перформативности”) uning uchun muhim badiiy qurilmaga aylanadi. Tompson “matn shakli” hodisasining namoyon bo‘lishi nuqtai nazaridan muallifning “gonzo” matnlarida quyidagi darajalarda ifodalanishi mumkin:

- muallif obrazining yaratilish darajasi;
- o‘quvchi darajasi;
- voqea darajasi;
- vizual-grafik daraja³.

H. Tompson asarlarida “текстуальность” va “перформативность” hodisalari ular o‘rtasida mavjud bo‘lgan moslashuv tufayli emas, balki bir-biri bilan o‘zaro ta’siri tufayli ahamiyatlidir. Yozuvchi-publitsistning “Gonzo-jurnalistikasi” nomi bilan mashhur bo‘lgan individual hikoya uslubi sodir bo‘layotgan voqealarni hujjatlashtirishga mo‘ljallangan. Voqealarning badiiy bo‘lmagan matnda taqdim etilishi o‘quvchi uchun o‘ziga xos hayratlanarli, hujjatli “spektakl” yaratish orqali

² Прутцков Г.В. История зарубежной журналистики (1945-2008). Хрестоматия. М. «Аспект-пресс», 2008. 705 с.

³ Ольга Файзуллина., Текстуальная перформативность в тексте нон-фикшн. // Филология и культура. К., 2016. №4(46) с 61.



amalgama oshiriladi. Muallifning boshida paydo bo'lgan barcha fikrlarni to'g'ri belgilash o'quvchining voqea joyida mavjudligi ta'sirini yaratadi. Bu muallifning matnda aniq ishtirok etishi, bo'rttirilgan subyektivlik, o'ziga xos tasvirlar tufayli namoyon bo'ladi. Tompsonning jurnalistik tekshiruvlari natijasida qo'lga kiritilgan faktlar dekonstruksiya jarayonida, "Gonzo-jurnalistika" "muallif haqiqatini yaratish" vazifasini bajarayotganday yangi shakl kasb etadi.



Shuni aytish kerakki, gonzo-jurnalistika boshqa yo'nalishlardan farqli o'laroq o'z ramziga ega. Hunter Tompson gonzo-jurnalistikaning asoschisi sifatida ushbu yo'nalish ramzini yaratgan. Peyot – kaktus guli qisilgan olti barmoqli musht gonzo ramzi sanaladi. Rasmdagi musht qilichga o'tib, uni ko'ndalang qismi "Gonzo" yozuvidan iborat. Qisilgan musht birlik, erkinlik, yakka hokimlik qarama-qarshilik, adolat, siyosiy voqelikka nisbatan o'z noroziligi namoyon qilib, o'z huquq va erkinliklarni himoya qilish va

haqiqat to'g'risidagi qarashlarni ramziy jihatdan ifodalaydi. Shuningdek, bu ramz chegaralarsiz tafakkur qilishga ham undaydi. Ikkita katta barmoq anomaliya va nomuntazamlikka ishoradir. Qilich esa jurnalistik so'zning kuchi va hokimligini bildiradi. Gonzo-jurnalistika ramzida, giyohvand modda tayyorlanadigan o'simlikning tasvirida ham o'ziga xos ma'no bor. Hunter va uning ko'plab izdoshlari voqealarni yoritish jarayonida giyohvand modda qabul qilishni yaxshi ko'rgan. Ular giyohvand modda voqelikni boshqa rakursda ko'rishga, uni mutlaqo o'zgacha nuqtayi nazar bilan idrok etishga yordam beradi, deb hisoblagan. Bundan tashqari, giyohvand modda iste'mol qilish o'sha paytda ommalashgan "hippi" harakatining hosilasi edi.

Giyohvand moddalar va spirtli ichimliklar Tompsonga (yoki Dyukga) hikoyaning yaxlitligiga putur yetkazmasdan, har qanday miqdordagi uydirma, ekstravagant xayollar haqida xabar berish erkinligini beradi, chunki giyohvand moddalar va alkohol insonning idrokini tubdan o'zgartiradi⁴.

Tompsonning o'sha mashhur "Kentukki derbisida yengiltak va axloqi buzuqlar" maqolasi tilining o'ziga xosligini kuzatamiz: *"Tartibsizlik avjida, poygani hatto*

⁴ Horvath, Jeffrey J. A Savage Journey to the Heart of Literary Freedom: Gonzo Journalism as a Vehicle for Social Criticism in the Literary Nonfiction of Hunter S. Thompson // Student Publications. – 2015. – P. 36.



yo'lakni ham ko'rishning imkoni yo'q... hech kimni qiziqtirmaydi. Pul tikish uchun ochiq derazalardagi katta navbatlar, so'ngra g'alaba qozongan raqamlar katta tabloda qanday miltillayotganini ko'rish uchun chetga chiqing... Qari qora tanlilar stavkalar haqida bahslashadi: "Kutib tur, men buni hal qilaman" (Bir pint viski, bir hovuch dollar banknotlarini silkitib); orqada bir qiz yuqoriga qarab ketyapti, futbolkasida shunday yozilgan: "Fort-Loderdeyl qamoqxonasidan o'g'irlangan"... Yo'lning narigi tomonidan klub binosi Kentukki Derbisidan olingan otkritkaga o'xshaydi"⁵.

U maqolasida dialoglardan ham keng foydalangan. Shu bilan birga o'zining xayolida o'tkazgan fikrlari, kechinmalarini ham boricha tasvirlashga uringan:

"Stolda o'tirgan xonim ellik yoshlar chamasida, ko'rinishi juda g'alati edi; Stedmanning ismini tilga olganimda, u yozayotgan narsasidan boshini ko'tarmay bosh irg'ab qo'ydi va past ovozda: "U buni qilganiga ishonaman", dedi. Keyin u menga tabassum qildi. – Ha, albatta. Janob Stedman hozirgina poyga yo'liga jo'nab ketdi. U sizning do'stingizmi?"

Men bosh chayqadim. "Men u bilan ishlashim kerak, lekin uning tashqi ko'rinishini ham bilmayman. Endi, la'nati, men uni otchopardagi olomon orasidan topishim kerak".

U kuldi. "Siz uni topishda hech qanday muammoga duch kelmaysiz. Siz bu odamni har qanday olomonning ichidan tanib olishingiz mumkin".

"Nega?" Men so'radim. "Unga nima bo'lgan? Uning ko'rinishi qanday?"

– Xo'sh... – dedi u hamon jilmayib, – u men ko'pdan beri ko'rgan eng kulgili jonzo't. – U bosh irg'adi. "Uni ko'rganingizda taniysiz, havotir olmang.

O'ylashimcha u ayyor Isoga o'xshaydi. Bu matbuotning obro'siga putur yetkazadi. Ko'z oldimda asabiy, gajang soch-soqolli, so'gal yuzli nusxa tahririyat idorasida paydo bo'lib, "Scanlan's Monthly" jurnal to'plamini talab qildi. Xo'sh... qanday dahshat! Politsiyachilar bizni aqldan ozgan deb o'ylamasliklari uchun biz har doim kislota iste'mol qilishimiz va kunni klub maydonchalarida eskiz varoqlari bilan sayr qilib o'tkazishimiz, mahalliy aholi ustidan kulishimiz va yalpiz juleplarini ichishimiz mumkin edi. Hattoki bu qimmatga tushsa ham katta yozuvli molbert

⁵ Thompson H. The Kentucky Derby is Decadent and Depraved // Scanlan's Monthly. – 1970. – №6.





o'rnating: "Har biri 10 dollar evaziga chet ellik rassom o'z portretingizni chizib bersin. Hoziroq bajaring!"⁶.

“Kentukki derbisida yengiltak va axloqi buzuqlar” maqolasida Topmson mana shunday dialog va biroz tushunarsiz muallif monologini keltirar ekan, bu bilan o’sha davr adabiyotida mavjud modernizm yo‘nalishining xususiyatlarini uyg‘unlashtiradi, xususan, ong oqimida kechayotgan fikr-o‘ylarni mantig‘iga ham qaramay yozib ketavergan. Aslida bu jarayon kimgadir tushunarsiz yoki erish tuyulishi mumkin, ammo bu murakkab jarayon bo‘lib, muallif unda inson ichki kechinmalari, atrof-muhitga munosabati, jamiyatning og‘riqli muammolarini yuzaga chiqishini ta’minlab beradi.

Modernizm insonning his-tuyg‘ulari(taassurot)ni aks ettirishga ko‘proq ahamiyat beradi xuddi gonzo kabi va xususiyati ham o‘xshash: subyektiv tajriba va individuallik. Modernizm tajriba va individuallikni qadrlaydi. Modernizm XX asr G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida kechgan adabiy-nazariy jarayon, ya’ni oqim deb tushunilsa, modern har bir milliy adabiyotda sodir bo‘luvchi zamonaviy, yangicha uslub va tamoyillarning majmuasidan iboratdir. Bu yo‘nalishda yozilgan asarlar shakli va uslubi ko‘p hollarda assotsiativ syujetni talab etadi va u asosiy syujet turiga aylanadi. Assotsiativ syujet, o‘z navbatida, o‘ziga xos tasvir printsiplarini talab etadi. Modernizm bu xususiyati bilan gonzo uslubiga yaqinligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Gonzo ham telbalarcha yozilgani bilan unda voqea bor, erkin tasvirlash, ifodalash mumkin, ayniqsa, til masalasi ham muhim ahamiyatga ega. Bu yo‘nalishda Jeyms Joys, Frans Kafka, Virjiniya Vulf, Marsel Prust, Alber Kamyu, Samuyel Bekket, Uilyam Folkner, Ernest Heminguey, Rey Bredberi kabi ijodkorlar yangi adabiy texnikadan, ong oqimidan foydalandilar.

Zamonaviy badiiy matnda rasmiy tilga emas, balki so‘zlashuv tiliga e’tibor beriladi. Shuningdek, gonzo uslubida ham so‘zlashuv tili, jargon, vulgarizm, nihoyatda erkin so‘zlashuv usuli, ibora va “ko‘cha tili” qo‘llanilishi bilan ajralib turadi. Nihoyat, modernistik adabiy matnlarda parchalangan shakllarni yangi yoqtirish, uzluksiz hikoyalar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, Samuyel Bekketning “Godotni kutish” asari, T.S. Eliot ijodi parchalangan shakllarning ajoyib namunasi bo‘la oladi. Shunday qilib, modernizm g‘arb xalqlarining urushdan keyingi ruhiyatidagi buzuqlik,

⁶ Thompson H. The Kentucky Derby is Decadent and Depraved // Scanlan’s Monthly. – 1970. – №6.





tanazzul va umidsizliklardan kelib chiqqan bo'lib, avvalgi adabiy an'anadan sovuq formalizm va an'anaviylikka aylanib ketgan. Modernistik fantastika ichki men va ong haqida gapirdi. Taraqqiyot o'rniga modernist yozuvchi sivilizatsiyaning tanazzulini ko'rdi. Modernist yozuvchi yangi texnologiya o'rniga sovuq texnika va kapitalizm kuchayib borayotganini ko'rdi, bu esa shaxsni begonalashtirib, yolg'izlikka olib keldi.

Modernizm da ijodkor erkinlikka beriladi, qoliplardan chekinadi. Bu yo'nalishdagi asarlarda ijobiy-salbiy qahramonlarning o'zi yo'q. Modernizm da iztirob, azob-uqubat ichidagi inson qiyofasini ko'rsatadi, tushkunlikka tushgan kishilarning xatti-harakatlari, o'y-kechinmalarini batafsil ifodalaydi. Modernizm, umuman olganda, yangilikka intilish va o'tmishdagi qoloq deb hisoblangan badiiy takliflardan uzoqlashishni nazarda tutuvchi badiiy va adabiy oqim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Прутков Г.В. История зарубежной журналистики (1945-2008). Хрестоматия. М. «Аспект-пресс», 2008. 705 с.
2. Ольга Файзуллина., Текстуальная перформативность в тексте нон-фикшн. // Филология и культура. К., 2016. №4(46) с 61.
3. Horvath, Jeffrey J. A Savage Journey to the Heart of Literary Freedom: Gonzo Journalism as a Vehicle for Social Criticism in the Literary Nonfiction of Hunter S. Thompson // Student Publications. – 2015. – P. 36.
4. Thompson H. The Kentucky Derby is Decadent and Depraved // Scanlan's Monthly. – 1970. – №6.
5. Гонзо-журналистика, взгляд изнутри / Стенфорд Уильям Лири [Электронный ресурс]. 2015. <http://www.gonzo.org/roads/hstbib.html>

